



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3614
2025 - yil 24 - Mart

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QO'MITASINING QARORI

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi va 2024-yil 22-oktabrdagi PF–165-son “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining shtat birliklari sonini tartibga solishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi farmonlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.
2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais
2025-yil 13-mart
2025-04-son



KUDBIYEV SHERZOD
DAVLYATOVICH

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining
2025-yil 13 -martdagi 2025-04-son qaroriga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ayrim idoraviy
normativ-huquqiy hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2017-yil 15-avgustdagi 2017-41-son qarori (ro'yxat raqami 2926, 2017-yil 5-sentabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 36-son, 972-modda) bilan tasdiqlangan Soliq to'lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomda:

a) 1-bandning ikkinchi xatboshisi, 4-bandning birinchi xatboshisi, 7-bandning birinchi xatboshisi, 10-bandning beshinchi xatboshisi va 16-bandning oltinchi xatboshisidagi "Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining" degan so'zlar "Soliq qo'mitasining" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

b) 1 – 3-ilovalarning matnidagi "Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasiga" degan so'zlar "Soliq qo'mitasiga" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2019-yil 4-apreldagi 2019-17-son qarori (ro'yxat raqami 3158, 2019-yil 6-may) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2019-y., 10/19/3158/3085-son) bilan tasdiqlangan Fuqarolarning pensiyalarini hisoblash uchun zarur bo'lgan hisoblangan ish haqining yakka tartibdagi hisobini yuritishning markazlashtirilgan elektron reyestrini shakllantirish va yuritish to'g'risidagi nizomning 1-bandidagi "Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining" degan so'zlar "Soliq qo'mitasining" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2019-yil 8-iyuldagi 2019-45-son qarori (ro'yxat raqami 3172, 2019-yil 12-iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-y., 28-son, 514-modda) bilan tasdiqlangan Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi nizomning 7-bandi birinchi va ikkinchi xatboshilaridagi "Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi" degan so'zlar "Soliq qo'mitasi" degan so'zlar bilan almashtirilsin.